



## SIRDARYO VILOYATI YER FONDINING HOZIRGI HOLATI.

**O'ng'arov H.G'.**

(O'zbekiston Milliy Universiteti, O'zbekiston)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10004203>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 04-October 2023 yil  
Ma'qullandi: 08- October 2023 yil  
Nashr qilindi: 14- October 2023 yil

### KEY WORDS

*yer fondi, resurs, tomchilatib sug'orish, bo'z yerlar, sug'oriladigan yerlar, sho'r yuvish.*

### ABSTRACT

*Maqolada Sirdaryo viloyati yer fondining hozirgi holati tumanlar kesimida yoritib berilgan. Shuningdek, Sirdaryo viloyati yer resurslarining holatini yanada yaxshilash bo'yicha muallifning takliflari berilgan.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarini maqbullashtirish va ularni ajratishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash, yer-suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy bozor mexanizmlari, innovatsion va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, past hosilli paxta va g'alla maydonlarini qisqartirish hisobiga yuqori daromadli, eksportbop mahsulotlar yetishtirish bo'yicha tizimli choralar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, respublika aholisi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sib borishi, qishloq xo'jaligi yerlarining boshqa toifaga o'tkazilishi va global iqlim o'zgarishi ta'sirining keskinlashuvi oqibatida oxirgi 15 yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan yer maydonlari o'lchami 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektargacha), o'rtacha yillik suv ta'minoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqarib ketdi.

Uzoq yillar davomida Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligi yerlaridan noto'g'ri foydalanish natijasida tuproqning tabiiy unumdorligi va ekinlar hosildorligi pasayib, yetishtirilgan mahsulot sifati yomonlashmoqda, atrof muhit ifloslanishi ortib bormoqda. Jumladan, sug'oriladigan ekin yerlaridagi tuproqlarning 93 foizida harakatchan fosfor miqdori, 68,3 foizida almashuvchan kaliy miqdori, 79,3 foizida gumus (chirindi) miqdori o'rtachadan past darajaga tushib qolgan. Milliy daromadi O'zbekiston bilan deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun davlat budjetining 4-5 foizi yo'naltiriladi yoki YaIMga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlarda 1 foizdan ortiqroqni, daromadi yuqori bo'lgan davlatlarda esa 1 foizdan kamroqni tashkil etadi.

Sirdaryo viloyatida yerlarni sug'orish jarayoni, sho'r yuvish ishlari tuproqqa, uning kimyoviy, fizikaviy xossalariga, meliorativ holatiga hatto ularning kelib chiqishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi kunda bog'dorchilik va tomorqa yerlari Sirdaryo viloyatining Boyovut va Sayhunobod tumanlarida katta maydonlarni egallaydi. Tomorqa yerlari Boyovut tumanida

3570 ga ni, bo'z yerlar 34 ga ni tashkil etgan. Sardoba tumanida bo'z yerlar atigi 761 ga ni tashkil etgan. Xovos tumanining garchi umumiy yer maydoni 61955 ga ni tashkil etgan bo'lsada, ekin yerlari jami maydonining yarmini tashkil etgan. Mirzaobod tumanining umumiy ekin maydoni 31462 ga ni tashkil etib, pichanzor yaylovlari va bo'z yerlar eng katta maydonni egallagan. So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatining umumiy ekin maydonlari 5000 gektarga kamayib ketdi.

Ayniqsa Sirdaryo viloyatining Sardoba, Oqoltin, Sayhunobod tumanlarida ekin yerlari juda keskin kamayib ketdi. Barcha tumanlarda ko'p yillik daraxtzorlar, bo'z yerlar, tomorqa yerlar maydoni keskin qisqarishga uchradi. Guliston tumanida ekin yerlari 21667 gektardan 21372 gektargacha kamaydi. Oqoltin tumanida ko'p yillik daraxtzorlar 420 gektardan 433 gektarga ko'paydi. Boyovut tumanida bo'z yerlar va pichanzor yaylovlarning maydoni deyarli o'zgarmadi. Sayhunobod tumanida tomorqa yerlar va bog'dorchilik yerlari biroz kamaydi. Sirdaryo tumanida pichanzor va yaylovlari 3944 gektardan 2484 gektargacha qisqarib ketdi. Xovos tumanida ekin ekiladigan yerlar mazkur 5 yil mobaynida 2000 gektarga qisqarib ketdi. Arnasoy tumanida ekin yerlar 31416 gektardan 31503 gektargacha ko'paydi.

O'zbekiston sug'oriladigan yer maydonlari, bu maydonlarga ishlov berish va yuqori hosil yetishtirish jarayonlarida suv xo'jaligi tizimining ahamiyati kattaligi bo'yicha ham, bu sohaga davlat tomonidan ajaratilayotgan mablag' miqdoriga ko'ra ham boshqa davlatlardan keskin farq qiladi. Ma'lumki, rivojlangan davlatlarda sug'orish texnologiyasini takomillashtirishga katta ahamiyat beriladi. Sug'orish texnologiyasining progressiv usullari dastlabki kapital quyilmalarni ko'proq talab qilsa ham, suv sarfini va mehnat sarfini tejash imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, ish kuchi qimmat bo'lgan davlatlarda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sirdaryo viloyati yer resurslaridan samarali foydalanish maqsadida bugungi kunda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston sharoitida tomchilatib sug'orish tizimlari asosan 1975-yildan boshlab tajriba tariqasida bog' va uzumzorlarda tadbiiq qilina boshlangan. Tomchilatib sug'orish tizimlarini qo'llash 1990-yillar boshida ancha kengaytirildi. 1990-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekistonda yana 600 ga maydonda tomchilatib sug'orish tizimlari joriy qilindi. Shu jumladan 1999-2001 yillarda Toshkent, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida uchta 100 gektarli maydonda Isroil davlati Netafim firmasining har biri 2,1 mln. AQSh dollari turadigan tomchilatib sug'orish tizimlari tadbiiq qilindi. Isroil davlatining bu borada yuksak yutuqlarga erishayotganini alohida aytib o'tildi. Isroil qishloq xo'jaligi tomchilatib sug'orishga moslashgani uchun bir kilometr ham kollektor drenaj tarmog'i va sho'rlangan maydonlar yo'q. Tomchilatib sug'orilganda ekinning hosildorligi yuqori bo'ladi. Hosildorlik bog' va tokzorlarda 40% gacha, sabzavotlarda 80% gacha ortadi. Mamlakatimizda suv xo'jaligi tizimini modernizatsiya qilish hamda texnologik qayta jihozlash, shuningdek boshqarishni takomillashtirish borasida keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Sirdaryo viloyati yer-suv resurslarini o'rganish mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirish, iqtisodiy o'sish va aholining umumiy farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu resurslardan samarali foydalanish mavjud sug'orish tizimlarini rivojlantirish, yerdan barqaror foydalanish amaliyotini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi T 01.07.1998, 1,2 moddalar
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni, 17.06.2019 yildagi PF-5742-son.
3. P. Baratov. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. T. 1996.
4. Qayimov A., Bobojonov A. Yer resurslarini boshqarish va unumli foydalanishda mevali ekinlarning xilma-xil navlarini joylashtirish. – T.2020
5. Ramazonov A., Buriyev S. Tuproqshunoslik va dehqonchilik.- T.2018.
6. Salohiddinov A., Ashirova O. Suv resurslarini havzaviy rejalashtirish va boshqarish. – Toshkent, 2011.-11 b.
7. Yo'ldoshev G'. Meliorativ tuproqshunoslik.- T.2008.
8. Tursunov H.T., Raximova T.U. Ekologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent., 2006.
9. Hasanov I.A., G'ulomov P.N., Qayumov A.A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.(2-qism). -T. 2006.
10. Yo'ldoshev G. Meliorativ tuproqshunoslik.-T.2008.
11. <https://nrm.uz/> [Ўзбекистон қонунчилиги қидирув-ахборот тизими]
12. <https://kun.uz/news/2022/05/13/sirdaryo-viloyatini-rivojlantirish-dasturi-tasdiqlandi>
13. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) [Государственный комитет по статистике Республики Узбекистан]

INNOVATIVE  
ACADEMY